

SHOIR BERDAQNING HAYOT YO'LINI O'RGANISHNING IBRATLI TARAFLARI

TashPTI 2-Pediatriya va tibbiy-biologiya fakulteti

4-kurs 409-guruh talabasi Xoliqova Gulilola Yakubovna

ToshPTI Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti

2-kurs 208-guruh talabasi Nomozova Gulnoza Rahim qizi

Ilmiy rahbar: Xidirova Shaxlo Shavkatovna

Annotation. Berdaqning ibratli hayot yo‘li, qoraqalpoq xalqining ijtimoiy hayot ifosi, o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Ushbu maqolamiz orqali Berdaqning hayoti xalq uchun ko‘rsatgan xizmatlari, sherlaridagi xalqparvarlik gumanizm ruxi haqida qiziqarli fikr mulohaza yuritamiz.

Kalit so‘zlar: adabiyot, sherlar, asarlar, dostonlar, xalq,adolat.

Abstract. Berdak’s exemplary way of life, the social life of the Karakalpak people, evaluates the events and social relations of his time as an intelligent poet. Through this article, we will discuss Berdaq’s life services for the people, the spirit of philanthropy in his poems.

Key words: literature, poems, works, epics, people, justice.

Аннотация: Образцовый быт Бердака, общественная жизнь каракалпакского народа оценивает события и общественные отношения своего времени как интеллигентный поэт. В этой статье мы обсудим жизненные заслуги Бердака перед народом, дух человеколюбия в его стихах.

Ключевые слова: литература, поэмы, произведения, былины, народ, справедливость.

Yoshlarni yot g‘oyalar xurujidan ishonchli himoya qilish uchun muqobil axborot resurslari yaratib, boyitib borish muhim¹.

Adabiyot so‘zi arabchadan olingan bo‘lib adab so‘zining ko‘pligi ma’nosini bildiradi, fan va amaliyotning biror sohasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar majmui texnikaviy adabiyot, qishloq xo‘jaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot va boshqa turlarga bo‘linadi. Adabiyotning dastlabki shakli og‘zaki bo‘lgan, yozuv paydo bo‘lgandan so‘ng yozma shaklga o‘tgan. Adabiyot so‘z orqali insonning histuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning yetakchi uch turi epos, lirika, drama mavjud. Epos voqelikning o‘zini in’ikos etadi, lirikada esa insonning voqelikdan olgan tasurotlarni qo‘shib tasvirlanadi. Sharq madaniyatida qadimdan

¹ <https://president.uz/oz/lists/view/5897>

she'riyat tuyg'ulari o'liasi bo'lgan. Shu boisdan Sharq badiiy adabiyotida ayniqsa lirika keng rivojlangan. Adabiyotda drama hayotni harakatda ifodalab, muallif nutqisiz aks ettiradi. Adabiyotdaga murojat qilganimizda bizni vijdonimiz va qalbimizni larzaga soluvchi o'zga bir olamni kashf qilamiz. Adabiyotimizda shunday ijodkorlar borki ular ijodini o'rganib o'zimizni ma'naviy olamimiz yanada boyitib shoir ijodidan ibratomuz tarzda tasurotlar olamiz. Shunday ijodkor shoir Berdaq ijodida o'zgacha bir ibratli hayot yo'li bizni yangi bir olamga olib boradi. Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish, mashhur shoirlarning she'rleridan bahramand bo'lish mutafakkir badiiy ijodini kamolga yetib shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Eng muhimi, she'rleriga o'zi kuy bastalab kuylay boshladi. Berdaq ko'p shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch, Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklarni ziyorat qilib o'ziga ilohiy bir kuch olgan adib zamonasining nohaqligini qalamga dadillik bilan solgan.

O'z zamondosh shoirlar bilan muntazam fikir almashinib muloqatda bo'lgan deb takidlasak bo'ldi. Berdaq she'rlerining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi vaadolatsizligiga bag'ishlangan. Uning she'rlerida insonparvarlik, tenglik, saxiylik,adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar Berdaqning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. ayniqsa, Berdaq ijodiy faoliyati Xiva xonligi va Chor Rusiyasi hukmronligi davriga oddiy xalqqa nisbatan o'tkazilgan zulm-zo'rliklar shoirning bir qator she'rlerida ochiq tasvirlab berilgan. Shuning uchun u o'z zamonasidagiadolatsizlikdan, xon gumashtalaridan, soliq yig'uvchilardan, miroblarning o'zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi, inson qancha mexnat qilmasin, muhtojlikdan chiqaoqlasligidan zorlanadi. Berdaq o'zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga olib o'zining ijodiga nazar solgan holda o'zi yozgan insoniylikni, vatanparvarlikni tarannum qiluvchi sherlariga kuy bastalab do'mbira chertib faqiru boylarga birdek kuylagan. Shoirning yozgan fikrlarida mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Shoir o'z sherlari orqali tuzumda faqatadolatsizlik, haqsizlik, ta'magirlilik, o'zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga kelgan. Shoirning g'am-tashvishlari, dard-hasratini u bilan baravar elkalagandir. Berdaqning hayotidan ibrat oladigan o'lmas misralari sifatida quydagi she'rini keltirsak:

Berdimurot, izla, izla,
Har yo‘lini to‘g‘ri ko‘zla.
Ne so‘lasang, yaxshi so‘zla,
Haq diyordin izlar edim.
Azob bilan olmag‘aydi jonioymi,
Yigitlar, aytayin arzi holimni,
Yig‘lab o‘tkazdim men mohu solimni,
Sho‘rlik Berdimurot yozar xalq uchun.
Barchani yaratgan qodir xudoyim
Bersang bul bandaga Haqning yo‘lin ber,
Egri yursam ortar mening gunohim,
Bu qalbimga to‘g‘rilikning nurin ber².

Ushbu she’ri orqali hayot yo‘lida faqat to‘g‘rilik va odillik insoniylik kabi fazilatlarni qalamga olib qo‘g‘ozga muhurlagan yuksak insoniylikni tarannum etishdan charchamagan zabardast shoir sifatida doimo bizni qalbimizni zabit etishdan also to‘xtamaydi. Shunday insonlar borkiy hayoti juda qisqa ammo qoldirgan ma’naviy merosi katta bo‘ladi. Shunday insoniylikni namunasi bo‘lgan shoirlardan bo‘lgan Berdaq qoraqalpoq elining buyuk shoirisifatida doimo zamonlar osha bizgacha yetib kelgan adib hisoblanadi. Xulosamiz so‘ngida Qoraqalpog’istonning shahar va tumanlarida, ma’naviyat va marifat maskanlarida Berdaqxonlik tadbirlari o‘tkazilib kelmoqda. Uning she’r va dostonlaridan namunalar o‘qiladi. U o‘z davri voqealariga, ijtimoiy munosabatlarga zukko shoir sifatida baho beradi. Asarlarida tenglik, insonparvarlik, adolat va vatanparvarlik g‘oyalari ilgari suriladi. Berdaq simosi haqiqiy ma’noda adabiyotimizda ibrat olishga arzigelik shoirlar qatorida turadi, balki butun turkiy xalqlarning g’urur va iftixori timsoliga aylangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Berdaq Saylanma she’rlari va dostonlari. Mirtemir tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent — 1978
2. “Ma’naviyat yulduzları” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999) kitobidan olindi.
3. O‘zbekiston SSR fanlar akademiyasi X.S.Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti “BERDAQ SHE’RIYATIDAN” Mirtemir tarjimasi 1978-yil.
4. www.saviya.uz
5. www.ziyonet.uz
6. www.ziyokom.uz

² Berdaq Saylanma she’rlari va dostonlari. Mirtemir tarjimasi. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent — 1978